

## THE ROLE OF MOBILE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION

**Qudratov Orzumurod**

Master of Jizzakh State Pedagogical Institute

**Ummatova Mamura**

Master of Jizzakh State Pedagogical Institute

Email: orzubek\_tatu@mail.ru

Tel.:+998946732051

**Abstract:** This article analyzes the achievement of high efficiency using mobile phones and their applications, taking into account the wide coverage of mobile phones in the study of ICT literacy and computer skills.

**Keywords:** BYOD (Bring Your Own Device), Mobile Learning (M-Learning)

## OLIY TA'LIMDA MOBIL TA'LIMNING TUTGAN O'RNI

**Qudratov Orzumurod**

Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti

**Ummatova Ma'mura**

Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti

Elektron pochta: orzubek\_tatu@mail.ru

Tel.:+998946732051

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada AKT savodxonligini oshirish va kompyuterda ishlash ko'nikmalarini o'rjanuvchilarda mobil telefonlarning qamrovi kengligini inobatga olib mobil telefonlar va ularning dasturlaridan foydalanib yuqori samaradorlikka erishish tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** BYOD (Bring Your Own Device-O'z qurilmangni olib kel), Mobil ta'lif (M-Learning)

Bugungi axborot kommunikatsion texnologiyalari kundan kun rivojlanib, soat sayin yangi o'zgarishlar bilan boyib borayotgan va uni o'rjanishga bo'lgan talab yuqori bo'lgan davrda kompyuter savodxonligini oshirish O'zbekistonda davlat miqyosida axamiyat kasb etgan. Buning yaqqol misolida kompyuter savodxonligini oshirish bo'yicha bir qator tizimli ishlar va hukumat tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar hamda yurtimizda yoshlar o'rtasida "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarni misol keltirish mumkin. Yurtimizdagи viloyatlar va tumanlar markazlarida hamda korxona va tashkilotlarda tashkil etilayotgan STEAM va IT parklar hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar va famonlarning ijrosi ta'minlanayotganidan darak beradi. [1]

O'zbekstonda kompyuter qurilmalari qamrov darajasi ko'ra, mobil telefonlarning qamrov darajasi bir muncha yuqoriligi hamda kompyuter qurilmalari bo'lmagan aholi o'rtasida ham kompyuter savodxonligini oshirishda mobil telefonlar va mobil telefonlarning dasturlari orqali kompyuterda ishlash ko'nikmalarini oshirish mumkin.

Bunda, kompyuter dasturiy maxsulotlarining mobil telefonlar uchun ishlab chiqilayotgan dasturlari ko'rinish interfeysi va funksionalligi yaqinligi, klaviatura joylashuvi bir xilligi uchun foydalanuvchilarda dastlabki kompyuterda ishlash ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'rni beqiyos axamiyat kasb etadi.

### **Asosiy qism:**

Ko'pgina ta'lif muassasalari ta'limning **BYOD (Bring Your Own Device-O'z qurilmangni olib kel)** uslubiga o'tmoqda. Ta'lif berishda ta'lif oluvchining qurilmalaridan unumli foydalanish ko'لامi ortib bormoqda. Bunga misol qilib yurtimizda axborot texnologiya sohasidagi va tibbiyot sohasida oliy

ta'lim muassasalari aytishimiz mumkin.

**Mobil ta'lim (M-Learning)** – vaqt makondan qat'iy nazar mobil qurilmalar orqali o'qish imkoniyatidir.

**Mobil ta'lim** - bu ta'lim oluvchining joylashgan o'rnidan yoki joylashuvining o'zgarishidan cheklanmay mobil qurilmalar orqali elektron o'qishdir. Mobil ta'lim - bu faqatgina nazariy ehtimollik emas ayni mavjud narsadir. Turli davlatlardan ishtirok etuvchilar va pedagoglar mobil qurilmalar yordamida keng marifiy resurslardan foydalanish imkoniga ega bo'ladi, axborotlarni muhokama qilish va axborotlarni boshqa o'quvchilar bilan bo'lishishlari mumkin, hamkasblardan va o'qituvchilardan madad olishlari shuningdek, samarali aloqani yo'lga qo'yishlari mumkin.

Shuningdek, mobil ta'lim tarkibiga quyidagi talablar qo'yiladi:

**Ixchamililik (Qulaylik)**- mobil ta'lim tarkibiy qismlari aloqadagi ehtimolli uzilishlarni inobatga olgan holda davomiylik bo'yicha qisqa bo'lishi lozim yoki offline ishlash imkoniyati xisobga olgan holda dasturlardan foydalanish.

**Mikroergonomikaning yuqori darajadaligi** - kichik ekranda ovoz va rasmlarning kichik hajmda va yuqori sifatlari bo'lishi. Fayllarning kichik hajmdaligi yuklab olishning tezligini ta'minlaydi.

**Mobililik (Har joydalik)** - mobil o'qitish tarkibidagi materillarni joylashgan joyidan qat'iy nazar hohlagan joyda olish mumkin. Mobil aloqa va mobil qurilmalar ta'minotchilarining ulkan qamrovi mobil ta'lim xizmatlaridan har joyda va siz uchun qulay paytda foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

**Talab bo'yicha foydalanishga ruxsat** - tabiatan mobil qurilmalar o'quvchilar uchun talab bo'yicha zarur paytda o'zining maksimal yetkazib berish imkoniyatini ishga solib zaruriy tarkibdan foydalanishni ta'minlaydi.[2]

## Xulosa

BYOD (Bring Your Own Device-O'z qurilmangni olib kel) Mazkur uslub ta'lim muassasasini kompyuter qurilmalari bilan jihozlash xarajatlarini kamaytirishga sabab bo'ladi, chunki mobil qurilma egalari o'z qurilmalarini, muassasa kompyuter jihozlarini yangilashiga nisbatan tezroq yangi modelga almashtiradi. Shuningdek, axborot xavfsizligi talablari bir muncha bajarilgan bo'ladi.

Mobil ta'limning barcha jihatlari qarab chiqilgandan so'ng, o'qituvchi ta'lim jarayonini loyihalashtirishda ma'lum talablarni bajarishi shart sifatida qabul qilinadi.

Bunda o'qituvchi tomonidan mobillik darajasi tanlaniladi va shu darajada qo'llash mumkin bo'lgan raqamli axborot ta'lim resurslari ajratib olinadi. Ushbu jarayonda elektron darslik, dasturiy ilova va so'rovnomalar kabi ta'lim berish imkoniyatlarini oshiruvchi vositalar o'rganiladi va tizimlashtiriladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://it-park.uz/documents/PKM589uz.pdf>
2. TA'LIM UMUNDORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI. Madina Azamovna Farmonova. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
3. <https://habr.com/ru/company/ipmatika/blog/584014/>
4. <https://skomplekt.com/solution/byod.htm/>